

TA'LIM-TARBIYA SIFATNI BOSHQARISH VA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI ASOSIY VAZIFALAR

Ismoilova Yorqinoy Asqaraliyevna

Andijon viloyati Xo'jaobod tumani 6-szon DMTT direktori

Annotatsiya. Maqolada ta'lism sifatini boshqatish, ta'lism tizimini sifatli tashkil qilish, zamnaviy sifatli ta'lism tizimini yaratish, ta'lism samaradorligini oshirish to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Аннотация. Статья содержит информацию об управлении качеством образования, качественной организации системы образования, создании современной системы качества образования, повышении эффективности образования.

Abstract. The article contains information on managing the quality of education, quality organization of the education system, creating a modern quality education system, and increasing the effectiveness of education.

Kalit so'zlar: ta'lism sifati menejmenti, ta'lism muassasasi, ta'lism sifati, ta'lism samaradorligi, ta'lism jarayonlarini tashkil qilish, ta'lism jarayonlaribi boshqarish, vazifalar, tamoyillar.

Ключевые слова: управление качеством образования, образовательное учреждение, качество образования, эффективность образования, организация образовательного процесса, управление образовательным процессом, задачи, принципы.

Key words: educational quality management, educational institution, educational quality, educational efficiency, organization of educational processes, management of educational processes, tasks, principles.

Ta'lism sifatini boshqarish, eng avvalo, boshqaruvi kadrlari tomonidan ta'lism va kadrlar tayyorlash jarayonini kuzatish kabi faoliyat turidan foydalanishni ko'zda tutadi. Buning uchun ular tegishli metodlarni, jumladan, kvalimetriya asoslarini, ya'ni sifatni miqdoriy baholash metodini qo'llash orqali ta'lism sifatining boshlang'ich va berilgan holatini aniq belgilashlari lozim bo'ladi. Ilmiy adabiyotlarda mahsulot, xizmatlar sifatini baholash, boshqaruvi faoliyatining baholash ob'ekti to'g'risida qadriyat borasidagi mulohazalarni shakllantirishga qaratilgan funksiyasining alohida tipiga kiritiladi. Ta'lism sifatini o'lchash sifat o'lchovini belgilash va uning qiymatini maxsus algoritmlar yordamida olishni ko'zda tutadi. Bunday jarayonning samaradorligi baholashning statistik metodlarini qo'llash orqali ta'minlanadi. Bu baholanayotgan ob'ektning sifat ko'rsatkichlari qiymati aksariyat hollarda tasodifiy kattaliklar deb hisoblanishi bilan bog'liqidir. Bunday holat ana shu sifatga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi ko'plab omillar va shart-sharoitlar bilan izohlanadi. SHu bois boshqaruvi

tarkibi ta'lim sifati haqidagi axborotni olish va ishlashning statistik metodlarini qo'llay bilishi kerak.

Ta'lim sifatini boshqarish (ta'lim sifati menejmenti) ta'limni boshqarishning umumiyligi tuzilmasi tarkibiga kiradi. Bunda ta'lim sifati menejmenti rahbarning yakkaboshchiligi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan va amalda o'z samaradorligini ko'rsatgan boshqarishning chiziqli tuzilmasini inkor etmaydi. O'z o'rnilida, sifat menejmentining joriy etilishi umumiyligi boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshiradi – ta'lim muassasasi rahbari, xodimlari va manfaatdor jamoat tashkilotlari vakillari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Vazifalarning bajarilish ketma-ketligi, vazifalarning o'zi, bajarish yo'llari, alohida usul va xarakatlarning batafsil tartibi, ta'lim sifatini ta'minlovchi asos sifatida, qabul qilingan boshqaruv qarorlarining samarali ijrosini kafolatlaydi.

Ta'lim sifati nazorati. Ta'lim sifatini nazorati davlat hukumati va maxsus Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiysi tomonidan amalga oshiriladi. Davlat



inspeksiyasining boshqaruv xodimlari cheklangan soni 108 nafardan iborat bo'lib, bu inspeksiya yuklatilgan vazifa va funksiyalarni bajarish doirasida davlat organlari va tashkilotlari, ilmiy va oliv ta'lim muassasalari, yetakchi xalqaro va xorijiy tashkilotlarning malakali mutaxassislari, shu jumladan ta'lim sohasidagi xorijiy ekspertlar va xorijda yashayotgan vatandoshlarni maslahatchilar sifatida jalb qiladi.

Ta'lim sifatini boshqarish. Ta'limni tashkil etish, boshqarish va nazorat qilishda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga qo'yiladigan talablar, qoidalari ta'lim prinsiplari deb ataladi. Prinsiplar umumdidaktik kategoriya bo'lib, ular ta'limning barcha turlari, darajalari, sub'ektlari, o'quv-tarbiya jarayonining hamma komponentlariga dahldor umumiyligi qoidalardir. O'qitish bilish faoliyatining ajralmas qismi sifatida, insonning tevarak - atrofdagi dunyoni bilishining umumiyligi qonunlari asosida sodir bo'ladi. Shuning uchun o'qitish tamoyillari ta'lim jarayonining eng muhim masalalarini nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri hal qilishning asosiy negizi hisoblanadi. Ta'lim jarayonida muvaffaqiyatlarga faqat bilim berishda o'quvchi - talabaning o'ziga xos shaxsiy xususiyatlarini hisobga olganda erishish mumkin. Shuning uchun o'qituvchilarda bolalar psixologiyasiga oid bilimlar yetarli bo'lishi lozim. Sinf o'quvchilar jamoasiga xos umumiyligi xususiyatlar va har qaysi o'quvchiga tegishli xususiyatlar ta'limning har bir bosqichida e'tiborga olinishi kerak. Bunga erishish uchun pedagog o'quvchilarni kuzatishi va ularning ruhiy olamini o'rganishi

lozim. Faqat shundagina o‘quvchidagi kamchiliklarning kelib chiqish sabablari aniqlanadi va ularni bartaraf qilish uchun izlanishlar olib boriladi.

Demak, ta’lim sifatini boshqarish ta’lim tizimidagi boshqaruvi faoliyatining mavjud nazariyasi va amaliyotini muhim elementlar bilan to‘ldiradi, ya’ni u ta’limni boshqarish yaxlit tizimining tarkibiy qismi sifatida amalga oshiriladi.

Ta’lim sifati tashqi auditini jalb qilgan holda o‘quv muassasasi faoliyatini tizimli va holis baholashga tayanuvchi ta’lim sifatini ta’minalash tizimining rivojlanish mantiqi ta’lim muassasalarida ta’lim sifati menejmenti tizimini ishlab chiqish va joriy etishni taqazo qiladi.

Bundan tashqari, o‘quv muassasalarida ta’lim sifati menejmenti tizimining mavjudligi kelajakda ta’lim jarayoni sifati va natijalarini baholashning tashqi nazorati tadbirlarini ichki nazorat va o‘zini-o‘zi baholash natijalaridan foydalanish bilan almashtirish imkoniyatini yaratadi, mazkur jarayonlarning jamoatchilik nazoratiga ochiqligi esa ta’lim muassasasiga bo‘lgan ishonch darajasini oshiradi.

Sifatni boshqarish nazariyasining shiddat bilan rivojlanishi davri o‘tgan asrning 40-yillari oxiri va 50-yillariga to‘g‘ri keldi. Ushbu davrda A.Feygenbaum (Armand V.Feigenbaum) sifatni ishlab chiqish, sifatni qo‘llab quvvatlash va sifatni yaxshilash bosqichlaridan iborat Sifatning Umumiy Nazorati (Total Quality Control, qisqacha – TQC) tushunchasini kiritdi.

Bugungi kunga kelib TQCning bir-nechta asosiy (Yaponiya, Amerika, Yevropa) “maktabgacha ta’lim tizimi”lari mavjud. Shuning uchun, TQC asosini belgilovchi tamoyillar miqdori haqida mutaxassislar o‘rtasida yagona bir fikr yo‘q. Asosiylar sifatida quyidagi sakkizta tamoyil tan olingan:

- tashkilotning iste’molchiga yuz tutganligi;
- rahbarlikning roli;
- xodimlarni jalb etish;
- jarayonli yondashuv;
- boshqarishga tizimli yondashuv;
- muntazam takomillashtirish;
- dalillarga asoslangan qarorlarni qabul qilish;
- ta’minlovchilar bilan o‘zaro manfaatli munosabat.

Dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida mahsulot, xizmat, ish va jarayonlarning yuqori sifatini ta’minalashga yo‘naltirilgan hukumat, firma va kompaniyalar rahbariyatining sa’y-harakatlari natijasida sifatni oshirish milliy g‘oyaga aylandi.

Turli yondashuvlarning integratsiyasi natijasida Sifatning umumiy boshqaruvi (TotalQualityManagement – TQM) kontseptsiyasi shakllandi.

Zamonaviy TQMning asosini oliv darajadagi rahbarlikning tashkilot, uning xodimlari, iste’molchilari va jamiyatning manfaatlarini ko‘zlab sifat sohasidagi uzoq

muddatga mo‘ljallangan strategiyasini ishlab chiqish va barcha xodimlarning uni amalga oshirishdagi ishtiroki tashkil qiladi.

Ta’lim tashkilotlari rahbariyatining sifatni boshqarishdagi doimiy va muntazam shaxsiy ishtiroki – ta’lim muassasasining sifatni ta’minalash ishida muvaffaqiyat garovi hisoblanadi.

Sifatning umumiy boshqaruvini joriy etish uchun rahbar quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

- sifat menejmentini joriy etish, raqobat sharoitida ta’lim muassasasining maqsadi, umumiy mafkurasi, rivojlanish tamoyillarini ishlab chiqish to‘g‘risida strategik qarorni qabul qilishi;
- tashkilot maqsadlari tarkibiga sifatni ta’minalashni kiritish, uni ham ma’naviy va ham moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash;
- tashkilot oliy boshqaruvi tarkibidan sifat uchun mas’ul vakilni tayinlash;
- jarayonlarni boshqarishning statistik usullari va sifat menejmenti sohalari bo‘yicha xodimlarni (shu jumladan, yuqori pog‘ona rahbarlar tarkibidan) tayyorlash;
- xodimlar bilan qayta aloqani tashkil qilish (ichki iste’molchilarining fikrlari va talablarini inobatga olish);
- ichki audit va tashkilotdagi kamchiliklar tahlilini muntazam o‘tkazib turish.



Ta’lim samaradorligi: Ta’lim jarayoni samaradorligini oshirish, ta’lim oluvchilarning mustahkam nazariy bilim, faoliyat, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, ularni kasbiy mahoratga aylanishini ta`minlash maqsadida o`quv tarbiya jarayonida interfaol metodlardan foydalanish davr taqozosi hamda ijtimoiy zaruriyat sifatida kun tartibiga qo`yilmoqda.

Hozirgi kunda o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish, uning mazmun mohiyatini bilish, uni ta’lim jarayoniga tadbiq qilish va metodikasini yaratish juda muhimdir. Pedagogik kadrlarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlashda ularning metodik tayyorgarligini shakll antirish jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish mazkur jarayonning samaradorligini orttirishga zamin tayyorlaydi. O‘qitishning interfaol usulubiyotlari bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo‘lib, unda ta’lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo‘ladilar, ular biladigan va o‘ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Interfaol darslarda pedagogning o‘rni qisman o‘quvchilarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo‘naltirishga olib keladi. Bu uslublarning o‘ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o‘quvchilarning birgalikda faoliyat ko‘rsatishi orqali

amalga oshiriladi. Bundan pedagogik hamkorlik jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularga pedagogining dars davomida befarq bo‘lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur etilishi, o‘quvchilarining o‘quv jarayonida fanga bo‘lgan qiziqishlarini domiyligini ta‘minlanishi, pedagoglarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini mustaqil ravishda har birga yondashgan holda kuchaytirilishi, pedagogik va o‘quvchilarining hamkorlikdagi faoliyatini doimiy ravishda tashkil etishlari kiradi.

Ta‘lim oluvchilarining individual xususiyatlarini hisobga olish va ularning manfaatdorligini (motivasiyasini) oshirishga ko‘maklashish imkoniyatlariga ko‘ra, shuningdek, har xil turdagи multimediali o‘quv axborotlarining uyg‘unlashuvi, interfaollik, moslashuvchanlik sifatlariga ko‘ra multimedia foydali va mahsuldor ta‘lim texnologiyasi hisoblanadi. Interfaollikning ta‘minlanishi axborotlarni taqdim etishning boshqa vositalari bilan taqqoslaganda raqamlı multimedianing muhim yutuqlaridan hisoblanadi. Interfaollik ta‘lim oluvchining ehtiyojlariga mos ravishda tegishli axborotlarni taqdim etishni nazarda tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S.X. Dexqonova <https://cyberleninka.ru/journal/n/talqin-va-tadqiqotlar-ilmiy-uslubiy-jurnali-2022>.
2. Qurbonov SH, Seytxalilov E. Ta‘lim sifatini boshqarish. /T.: “Turon-Iqbol”, 2006. 592 b.
3. Total Quality Management – всеобщее управление качеством. – Журнал “Директор-Иваново”, № 1-2 (120-121), январь-февраль 2011 г.
4. R.Ishmuhammedov, M.Yo‘ldoshev. Ta‘lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar (Ta‘lim tizimi hodimlari metodistlar, o‘qituvchilar, tarbiyachi va murabbiylar uchun o‘quv qo‘llanma) – Т: 2013.
5. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Toshkent: Moliya,